ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
H. Norqulov	4	Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya: milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar
O. Aripova	11	Zamonaviy oilada farzand tarbiyasining ilmiy-pedagogik asoslari
B. Umarov	14	Maktab darslikmatnlarini o'qib tushunishda sun'iy intellektdan foydalanishning xulqiy tamoyillari
R. Quziyev	20	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish metodlari va ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon
B. Yusupov	24	O'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari
F. Olimova	28	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish (Variativ ta'lim strategiyasining ahamiyati va shaxsga yo'naltirilgan ta'limda hamkorlik)
A. Abdug'aniyev	32	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv ta'lim muhitini boshqarish mexanizmlari
N. Musayeva	37	Boshlang'ich ta'limda kollaborativ yondashuvning nazariy-metodik asoslari
F. Xamroyeva	40	Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (So'rovga asoslangan ta'lim misolida)
A. Avlaev	45	O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda konseptual yondashuvlar
T. Abdujabborova	50	Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni
Sh. Bekmuratova	53	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning differensial metodologik yondashuvlari
Z. Abralova	58	Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruvchilik kompetensiyalarini shakllantirish
M. Boxodirova	61	Matn ustida ishlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
Sh. Ochilov	65	Texnologiya fanida o'quvchilarga suv tejovchi qurilmalarni fanlararo bog'lik asosida o'qitish
S. Maxkamova	70	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini qalamtasvir fanida grafik rassomlar ishlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari
G. G'aniyeva	77	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga matn tahlilini amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar
S. Begimqulova	81	Biologiya darslarida loyihaviy ta'limning yangicha ko'rinishi
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		

M. Mahmudova	84	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ qobilyatlarini rivojlantirishda ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati
N. Suyunova	88	O‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish
M. Raximova	92	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida “vark” (visual, auditory, read/write, kinesthetic) modeli asosida multimodal ta’limni tashkil etishning pedagogik asoslari
X. Ergasheva	96	“Case-study” texnologiyasining oliy ta’lim pedagogika darslarida tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirishdagi roli
MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		
S. Abdujalolov	101	Milliy hunarmandchilik qadriyatlari vositasida o‘quvchilarining tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish usullari va shakllari
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
D. Tajiyev	104	Qishloq o‘quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari
PSIXOLOGIYA		
O. Jumanova	112	Birinchi sinf o‘quvchilarini maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga moslashtirishda pedagogik va psixologik jarayonning o‘rni va ahamiyati
F. Raximova	115	Boshlang‘ich ta’limda interaktiv o‘qitish texnologiyalarining psixologik asoslari
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
З. Ким	120	Учитель в центре реформ: уважение и признание
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Н.Тошманов, С. Абидова	125	Эффективность использования инфографики для визуализации информации на занятиях гистологии
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ		
Т. Камалова	130	Использование интерактивных методов с использованием современных информационных технологий при обучении русскому языку учащихся в каракалпакских классах
METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING		
D. Baratov, N. Rustamova	134	Analysis of factors affecting the formation of students' creative abilities in preparing for engineering careers
PSYCHOLOCY		
O. Zaripov	140	The harmony of mental and physical health in ensuring personal health

Gulnora G‘ANIYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi,
Toshkent shahar, Yashnobod tumani, 244-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIGA MATN TAHLILINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari bugungi kunda matn tahlilini zamonaviy dasturlar orqali amalga oshirishi muhimligi, innovatsion metodlardan, o‘yin texnologiyasidan hamda dalillarga asoslangan ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi oshirilishiga yordam berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Matn tahlili, dalillarga asoslangan ta’lim, didaktik tamoyil, baholash, innovatsion metodlar, muammoli vaziyat, integratsiya, formative baholash.

В данной статье рассматривается важность проведения анализа текста будущими учителями начальной школы с использованием современных программ, а также применение инновационных методов, игровых технологий и научно обоснованных образовательных технологий для повышения уровня грамотности учащихся.

Ключевые слова. Анализ текста, научно обоснованное образование, дидактические принципы, оценка, инновационные методы, проблемные ситуации, интеграция, формирующая оценка.

The following article discusses the importance of prospective primary school teachers conducting text analysis using modern programs. It also considers how the use of innovative methods, game-based technologies, and evidence-based education technologies helps to improve students’ reading literacy.

Key words. Text analysis, evidence-based education, didactic principles, assessment, innovative methods, problem situations, integration, formative assessment.

O‘zbekistonda olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari hamda o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirib, didaktik imkoniyatlarni, metodlarni aniqlab, uni pedagogik jarayonga tatbiq etishdan iborat. Hozirgi vaqtda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, matn tahlilini amalga oshirish jarayonida juda zarur. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarini mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot komunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy jamiyatdagi tub o‘zgarishlar oliy ta’limni sezilarli darajada qayta yo‘naltirishni, ta’lim shakllari,

vositalari va usullarini optimallashtirishni, mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarorida ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ta’lim jarayonida jahon ilm-fani va texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlash vazifasi belgilangan. Bugungi kunda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Endi savol shunday: biz nimani o‘qityapmiz emas, balki qanday natijaga erishyapmiz?

Ana shu savolga aniq, asosli va ishonchli javob berish dalillarga asoslangan baholashning bosh maqsadidir. Chunki dalil – bu taxmin emas, dalil – bu haqiqat. Haqiqat esa sifatli ta’limning eng mustahkam poydevoridir.

Baholash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar bizdan faqat reyting va ball bilan cheklanib qolmaslikni, balki o‘quvchining real kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va hayotiy ko‘nikmalarini aniqlashni talab etmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar subyektivlik, eskirgan yondashuvlar va raqamli imkoniyatlardan yetarlicha foydalanmaslik barchamizni chuqur o‘ylashga undaydi. Bizning asosiy vazifamiz oliygoh auditoriyalaridanoq talabalarda baholash savodxonligini shakllantirishdir. Zero, o‘qituvchi o‘quvchining bilimini shunchaki raqamlar bilan emas, balki aniq dalillar va tahlillarga tayanib baholashni o‘rganishi kerak.

Har bir o‘qish savodxonligi darsini tashkil qilishda o‘qituvchi o‘z pedagogik mahorati va va nazariy bilimlariga asoslangan holda, darsni oldindan rejalashi talab etiladi. Dalillarga asoslangan ta’lim – bu o‘qitish jarayonida qarorlarni ilmiy tadqiqotlar, tajriba natijalari va o‘quvchi kuzatuvlari asosida qabul qilish tizimidir.

Didaktik tamoyillar o‘qituvchiga dars jarayonini rejalashtirishda ilmiy ishonchli asos beradi. Didaktik tamoyillar 5 ta asosiy tamoyilni o‘z ichiga oladi. Matn tahlilida, ya’ni o‘qib tushunishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi 5 ta asosiy tamoyilni ko‘rib chiqamiz:

1-tamoyil: Mazmunli va funksional kontekstda o‘qish. O‘qish faoliyati real hayotga yaqin bo‘lsa, o‘quvchi matnga chuqurroq kirishadi.

Darslarda real hayotiy matnlar (xatlar, reklama, e’lon, blog posti)dan foydalaniladi. O‘qish maqsadi aniq bo‘lsin: “Bu matndan nimani bilib olaman?”

Masalan, 4- sinf o‘qish savodxonligi darsligining 3-qismida berilgan “Suvda xotira bor” matni asosida tahlil qilinsa, bu tamoyilga asosan matn o‘qilgach, o‘quvchilar “Olimlar olib borgan tadqiqotlarini yozing” topshirig‘ini bajaradi. O‘quvchilar aynan matnda keltirilgan tadqiqotlarni aniqlab yozib berishi kerak bo‘ladi. Matn mazmunini tushunish darajasi ilmiy matnni tahlili amalga oshiriladi.

Baholash:

O‘quvchi matndan foydalangan holda amaliy fikr bildira oladimi – kuzatish orqali aniqlanadi.

2-tamoyil: Matnlarni chuqur tahlil qilish

O‘qish – bu faqat o‘qib chiqish emas, balki matnni tahlil qilish, taqqoslash, savol berish va xulosa chiqarishdir.

Kichik guruhlarda o‘qish (savol beruvchi, xulosalovchi, so‘z yasovchi rollari).

“Nima uchun?”, “Agar…” kabi savollar orqali chuqur tahlilga undash.

Masalan, badiiy hikoyadan so‘ng “Qahramonning o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?” savoliga javob so‘rash orqali o‘quvchining tahliliy fikri, sabab-oqibatni izohlash qobiliyati tahlil qilinadi.

3-tamoyil: O‘qish strategiyalari bo‘yicha aniq ko‘rsatma

O‘quvchi matnni tushunish uchun ongli strategiyalarni qo‘llaydi.

“Ovoz chiqarib o‘ylash” metodidan foydalanish (o‘qituvchi fikrlash jarayonini namoyon etadi).

Strategiyalar: savol berish, xulosa chiqarish, vizualizatsiya, qayta o‘qish, asosiy fikrni ajratish.

Masalan, matnni o‘qishdan oldin – “Bu matn sarlavhasiga qarab nimalarni kutyapsiz?” deb so‘rash bilan o‘quvchi strategiyani mustaqil qo‘llay olishi dars davomida og‘zaki kuzatish orqali baholanadi.

4-tamoyil: O‘qish ta’limini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish

O‘qish – barcha fanlar uchun asosiy ko‘nikma. O‘qish darsida matematika, tabiiy va tarixiy matnlar bilan ishlashda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Masalan, “O‘qib bilamiz – o‘lchaymiz – chizamiz”, ya’ni dars davomida 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligi 3-qismidagi “Tog‘ qayerdan paydo bo‘lgan?” matni misolida ko‘rib chiqsak, o‘quvchi matn bilan tanishtirilganda, tabiiy fanlar bilan bog‘liq savollar bilan ishlanadi.

Bunda “Yer yuzi dastlab qanday tuzilishda bo‘lgan?”,

“Globusda tog‘lar qanday rangda tasvirlanadi?”

“Eng baland cho‘qqi nomi nima?” kabi savollar bilan o‘quvchilarning aynan tabiiy fanda o‘zlashtirgan bilimlarini eslay olishga zamin yaratadi. O‘quvchi boshqa fanlardagi bilimni matnga qo‘llay olishi – amaliy ishlar orqali aniqlanadi.

5-tamoyil: O‘qib tushunish va monitoring

Baholash faqat natijani emas, jarayonni ham o‘lchaydi.

Formativ baholash: suhbat, yozma javob, “Fikrimni yakunlayman…” iboralari orqali amalga oshirilishi mumkin. Aynan yakuniy baholash - test, loyiha, matn tahlili nazorat turlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, o‘quvchi “Men o‘qigan matndan shuni angladim…” deb yozib yakunlaydi.

Dalillarga asoslangan didaktik yondashuvlar o‘qituvchini tajriba va taxminlardan dalil va tahlilga olib o‘tadi.

Natijada o‘quvchi matnni mazmunan tushunadi, fikrini asoslaydi, va o‘z o‘qish jarayonini boshqara oladi.

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorligi deganda, biz shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, innovatsiya sohasidagi o‘zaro bog‘liq kasbiy va maxsus bilim va ko‘nikmalarning majmuini tushunamiz, ular yangicha usulda ta’lim olish va ta’lim berish hamda faoliyat yuritish, ushbu faoliyat turiga mos aniq kompetentliklarni ko‘zda tutadi. Dalillarga asoslangan ta’lim qat’iy qoidalar to‘plami emas, balki qarorlar qabul qilishga yordam beradigan vositadir. Bu o‘qitishning mukammalligi va tajribasining o‘rnini bosmaydi, lekin o‘qituvchilarga tanlagan usullari o‘quvchilarga chindan ham yordam berishiga ko‘proq ishonch bag‘ishlaydi. Tanlangan usul samarali bo‘ladimi yoki yo‘qmi, deb doimo shubha qilish o‘rniga, biz uning ish berishiga deyarli ishonch bilan amin bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan, bo‘lsak, bugungi Yangi O‘zbekistonda yangicha yondashuvlar, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanib o‘qitish tizimini tashkil qilish o‘quvchilarida matn tahlilini amalga oshirishda dolzarb vazifa sifatida qaraladi va buni amalga oshirishda yuqorida keltirilgan tavsiyalarni qo‘llab o‘qish savodxonligi darslarini takomillashtirib, o‘quvchilarning fikrlash qobilyatlarini rivojlantirib borsak, albatta, ko‘zlangan maqsadga birgalikda erishamiz va jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin ya-

ratgan bo‘lamiz. Shuningdek, innovatsion metodlarni qo‘llagan holda darslarni tashkil qilish bilan o‘quvchilar matnni faqat yodlash emas, balki tushunish, qo‘llash va tahlil qilishni o‘rganadi. Dars jarayoni faol, qiziqarli va izchil bo‘ladi. Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga ko‘ra bosqichma-bosqich rivojlanadi. Mustaqil fikrlash, ijodkorlik, mantiqiy tafakkur shakllanadi. O‘quvchilarni ko‘p darajali savollar bilan o‘ylashga majbur qiladi. Biz bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga yuqoridagi tavsiyalarga asoslanib, matn tahlilini amalga oshirib borishni tavsiya etamiz hamda darslarning samarali va mazmunli o‘tilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xidoyatov E.D., Matn va talqin: O‘quv qo’llanma. –T., 2005.
2. Musaxonova G. M., Innovatsion pedagogika: O‘quv qo‘llanma – T., 2022.
3. Ismoilov A.A., Tog‘ayeva G., Akbarova S., Asqarova D. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash: Metodik qo‘llanma. – T., 2019.
4. Aydarova U. B., Azizova N. K., O‘qish savodxonligi II qism: Darslik. –T., 2023.
5. Aydarova U. B., Azizova N. K., O‘qish savodxonligi III qism: Darslik. –T., 2023.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.